

**Ixtisoslikni tanlashda motivatsiya (huquqshunos kasbining mohiyati va ijtimoiy ahamiyatini tushunish, unga doimiy qiziqish bildirish)**

<b>T/r</b>	<b>Savollar</b>
<b>Davlat va huquq nazariyasi</b>	
1.	2022–2026-yillarga mo‘ljallangan taraqqiyot strategiyasida norma ijodkorligi va qonunchilik masalalari yuzasidan belgilangan maqsad va vazifalarni tushuntirib bering.
2.	O‘zbekiston Respublikasi davlat boshqaruvi shaklining o‘ziga xos jihatlarini yoritib bering.
3.	O‘zbekiston Respublikasi davlat tuzilishi shaklining o‘ziga jihatlarini yoritib bering.
4.	Misollar yordamida federativ davlatning umumiy belgilarini tahlil qiling.
5.	Siyosiy rejim, birinchi navbatda, ikki xil ko‘rinishda, ya’ni demokratik va nodemokratik turlarga bo‘linadi. Masalani qiyosiy tahlil qiling.
6.	Davlat organi tushunchasi va belgilarini misollar yordamida tushuntirib bering.
7.	So‘nggi yillarda mamlakatimizda huquq ijodkorligi bo‘yicha amalga oshirilgan islohotlar mazmunini amaliy misollar orqali atroflicha tahlil qilgan holda javob bering.
8.	Qonunchilik tashabbusi subyektlarini ko‘rsating.
9.	O‘zbekiston milliy huquqiy tizimi qaysi huquq oilasiga mansub?
10.	Huquq tizimi va qonunchilik tizimining o‘zaro farqi.
11.	Huquqiy rag‘batlantirish: tushunchasi, xususiyati, funksiyasi va turlarini amaliy misollar orqali atroflicha tahlil qilgan holda javob bering.
12.	Huquqiy imtiyozlar: tushunchasi, xususiyati, funksiyalari va turlarini amaliy misollar orqali atroflicha tahlil qilgan holda javob bering.
13.	Huquqiy tartibga solish samaradorligi, belgilari va uni ta’minlanish asoslarini tahlil qilgan holda javob bering.
14.	Qonuniylik tushunchasi va prinsiplarini tahlil qilib, javob bering.

15.	Qonuniylik kafolati: tushunchasi va turlarini amaliy misollar orqali tahlil qilgan holda javob bering.
16.	Davlat suvereniteti nima? Davlat suverenitetini mustaqil davlatni shakllantirish va rivojlantirishdagi ahamiyatini amaliy misollar asosida bayon eting.
17.	Davlatning mohiyati to'g'risidagi nazariyalarni muhokama qiling va ularni zamonaviy davlatni tushunishdagi amaliy ahamiyatini ko'rsatib o'ting.
18.	Ma'lumki, davlat hokimiyati – ijtimoiy hokimiyatning muhim shakli hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi misolida davlat hokimiyatining asosiy belgilarini yoritib bering.
19.	Davlat funksiyalarini amalga oshirish shakllari. Hozirgi kunda davlat funksiyalarini amalga oshirishning huquqiy shakllarini o'ziga xos jihatlarini bayon eting.
20.	Davlat funksiyalari tushunchasi. Hozirgi zamon davlati funksiyalari rivojlanishi va o'zgarishiga ta'sir etuvchi asosiy omillarni ko'rsatib o'ting.
21.	Davlat va huquq nazariyasi predmetining o'ziga xos xususiyatlarini nazariy jihatdan tahlil qilgan holda javob bering?
22.	Davlat va huquq nazariyasi fundamental fan sifatida bir qator funksiyalarni bajaradi. Shundan prognozlash funksiyasi yuzasidan o'z fikringizni batafsil tushuntirib bering.
23.	Davlat nazariyasiga taalluqli masalalar yuzasidan o'z fikringizni batafsil tushuntirib bering?
24.	Jamiyat rivojlanishiga ta'sir etuvchi obyektiv omillar sifatida qanday omillarni keltirishimiz mumkin, fikringizni misollar orqali bayon eting?
25.	Jamiyat shakllanishining dastlabki davrida amalda bo'lgan ijtimoiy normalar to'g'risida o'z fikrlaringizni bildiring.
26.	Huquq normalarini sharhlash tushunchasi va turlari. Rasmiy sharhlarning normativ-huquqiy hujjatlar mazmun-mohiyatini aniqlash va tushuntirishdagi ahamiyati.
27.	Norasmiy sharhlash turlari. Ilmiy sharhlashni norasmiy sharhlar tizimida tutgan o'rnini ko'rsatib o'ting.
28.	Huquqiy xulq-atvor. Insonparvar demokratik huquqiy davlatni shakllantirishda faol huquqiy xulq-atvorning ahamiyati.
29.	Huquqbuzarlik nima? Huquqbuzarlikning tarkibiy tuzilishini amaliy misollar asosida tushuntirib bering.
30.	Yuridik javobgarlikning maqsadi. Yuridik javobgarlikni istisno qiluvchi holatlarni bayon eting.

31.	Huquq ijodkorligi va qonun ijodkorligi orasidagi farqni amaliy misollar bilan tushuntirib bering.
32.	Huquq ijodkorligi jarayoni prinsiplarini mamlakatimizda so'nggi paytda olib borilayotgan islohotlar misolida tushuntirib bering.
33.	Huquq ijodkorligi jarayoni bosqichlaridan biri bo'lgan normativ-huquqiy hujjatlar loyihasi muhokamasi va unga zamonaviy texnologiyalarning jalb qilinishi haqida ma'lumot bering.
34.	Huquqiy tizim va huquq tizimi tushunchalari orasidagi farqni tushuntirib bering.
35.	Huquq tizimining elementlari hisoblangan moddiy huquq va protsessual huquqlar orasidagi farqlarni tushuntirib bering.
36.	Ijtimoiy normalar – odamlar xulq-atvorining umum e'tirof etilgan yoki keng tarqalgan namunasi, ko'rsatkichi, qoidalari, ular o'zaro aloqalarini tartibga solish vositasidir. Ijtimoiy normalarni turli mezonlar bo'yicha tasniflang.
37.	Bilamizki, huquq bilan axloq o'rtasidagi o'zaro nisbat ancha murakkabdir. Bu nisbat to'rt tarkibiy qismdan: birlik, farqlanish, o'zaro bog'liqlik va ziddiyatdan iborat ekanligi yuridik adabiyotlarda yoritilgan. Shundan kelib chiqib, huquq va axloqning birligi nimalarda o'z ifodasini topadi? Tushuntirib bering.
38.	Huquq va axloqning bir-biridan farqli jihatlarini muhokama qiling.
39.	Huquqshunoslik fanida qadimiy hisoblangan va puxta ishlab chiqilgan huquqning tabiiy huquq va pozitiv huquqqa bo'linish g'oyasi, shuningdek, pozitiv huquqning ilk rivojlanish davrida shakllangan ommaviy huquq va xususiy huquq tushunchalari huquqning mohiyatini to'g'ri anglash imkonini beradi. Huquqni tabiiy huquq va pozitiv huquqqa bo'linishini tushuntirib bering.
40.	Yuridik adabiyotlarda qayd etilishicha, huquqiy tarbiya – bu jamiyat a'zolarining yurish-turish madaniyatiga va ongiga huquq haqidagi bilimlarni doimiy ravishda maqsadga muvofiq ta'sir etish orqali singdirib borish jarayonidir. Ushbu tushunchadan kelib chiqqan holda huquqiy tarbiya vositalariga nimalar kiradi, deb o'ylaysiz?
41.	Huquq normasining tarkibiy birligi sifatida dispozitsiyaning har bir turiga amaliy misollar keltira olasizmi?
42.	Huquq normasi va huquq normasi belgilarining o'zaro bog'liqligini tushuntirib bering.
43.	“A.Olimovani “Do'stlik” ordeni bilan taqdirlash to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori hamda “Do'stlik” ordenini ta'sis etish to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori normativ-huquqiy hujjat hisoblanadimi?

44.	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoyishi huquq manbasi bo‘lishi yoki bo‘lmasligini tushuntirib bering.
45.	Normativ-huquqiy hujjatlar bilan ushbu hujjatlarning tarkibiy qismi bo‘lgan nizomlar, qoidalar, yo‘riqnomalar, reglamentlar, strategiyalar, konsepsiyalar, doktrinalar, dasturlar tasdiqlanishi mumkin. Ularninig o‘zaro farqli jihatlarini tahlil eting.
46.	“Rule of law” tushunchasining mazmunini hamda uning O‘zbekiston huquqiy tizimidagi ahamiyatini yoritib bering.
47.	Huquq ustunligi hamda qonun ustunligi tushunchalarining farqli jihatlarini yoritib bering hamda bugungi kunda O‘zbekiston huquqiy tizimida qay biri ustun mavqega ega ekanligi haqida fikr yuriting.
48.	Fuqarolik jamiyatining ma’naviy asosini amaliy misollar yordamida tushuntirib bering. Bugungi kunda O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan ma’naviy-ma’rifiy islohotlar haqida fikr yuriting.
49.	Huquqiy davlatning prinsiplaridan biri hokimiyat vakolatlarining taqsimlanganligi prinsipining mohiyatini O‘zbekiston Respublikasi misolida tushuntirib bering.
50.	Fuqarolik jamiyatining asosiy belgilarini yoritgan holda, bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasida fuqarolik jamiyatining shakllanish darajasiga baho bering.
51.	Aholining huquqiy ongini yuksaltirish uchun Konstitutsiyani bilishning o‘zi kifoya qiladimi?
52.	Ijtimoiy munosabatlar har doim insonlar o‘rtasida yuzaga keladimi yoki inson bilan tabiat, inson bilan texnika o‘rtasida ham yuzaga kelishi mumkinmi? Misollar keltiring.
53.	Umumhuquqiy prinsiplarning maxsus prinsiplardan farqi nimada? Misollarda tushuntiring.
54.	Huquq normasining gipotezasi nima?
55.	Norasmiy huquqni sharhlash turlarini sanab bering va mazmunini tushuntiring.
56.	Huquq ijodkorligining bir turi bo‘lmish qonun ijodkorligida O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining o‘rnini batafsil tushuntirib bering.
57.	“Huquqni qo‘llash” va “Huquqni amalga oshirish” tushunchalarining farqini tushuntirib bering.
58.	Yuridik javobgarlikning konstitutsiyaviy javobgarlik degan turi mazmun-mohiyatini misollarda tushuntirib bering.
59.	Davlatning ishontirish uslubi qo‘llanilishiga misollar keltiring va uning boshqa uslublardan afzalliklarini yoritib bering.

<b>60.</b>	Huquq ustuvorligi va qonun ustuvorligi tushunchalarining fundamental farqlarini izohlang.
<b>61.</b>	“Jamoat tartibi” va “huquqiy tartibot” tushunchalari bir xil ma’noni anglatadimi?
<b>62.</b>	Huquqshunoslik kasbiga o‘qiyotgan talabalar uchun nazariy bilimlardan ko‘ra shartnomalarni, qonun loyihalarini tuzish, ularni sharhlash kabi amaliy ko‘nikmalar muhim emasmi?
<b>63.</b>	Huquq nazariyasi va huquq tarixining qaysi biri birlamchi bo‘lishi kerak? Tarixda sodir bo‘lgan voqealar asosida uning nazariyasi ishlab chiqiladi, degan yondashuvga qo‘shilasizmi?
<b>64.</b>	Tabiiy huquq nazariyasi bilan pozitiv huquq nazariyasi nuqtai nazaridan qaraganda, konstitutsiyaviy huquq sohasi qaysi biriga taalluqli bo‘lishi kerak? Nega?
<b>65.</b>	Huquqiy ong tushunchasini muhokama qiling. Uning ahamiyatini amaliy misollar yordamida izohlang.